



## GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA SAMARASI

**Saidaxmedov Eldor Islomovich**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
techmespeaker@gmail.com

**Nabiyev Djurabek Umarovich**

Surxondaryo viloyati Denov tumani 31-maktab o'qituvchisi  
nabiyevjorabek7891@gmail.com  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8046457>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-June 2023 yil  
Ma'qullandi: 13-June 2023 yil  
Nashr qilindi: 16-June 2023 yil

### KEY WORDS

*Ta'lim, zamonaviy axborot texnologiyalar, multimedia vositalari, geografiya.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada maktab ta'limida geografiya fanidan maktab o'quvchilariga sifatli ta'lim berish va o'qitishda multimedia vositalari va texnologiyalaridan foydalanish va uning ta'limdagi samarasi haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lamiz. O'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish ko'nmasi bilan, o'quvchilarda dars mashg'ulotlariga nisbatan qiziqishlari ortishiga va darsni samarali tashkil etish. Ta'lim jarayoniga innovatsion yondoshish zamonaviy ta'limning zaruriy shartidir. O'quv materialini o'zlashtirish bo'yicha an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda (geografiyada bu hududiy, murakkab, tarixiy, tipologik) zamonaviy o'qitish texnologiyalari asosida yangi (tizimli, muammoli, konstruktiv) yondashuvlar qo'llaniladi.*

Bugungi shiddat bilan rivojlanib kelayotgan zamonda maktab ta'limini sifati va samaradorligini oshirish maqsadida kompyuter va turli zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish biz pedagoglarning asosiy vazifalarimiz hisoblanmoqdi.

Hozirgi kunda Uchinchi Renesans vakillarini ta'lim-tarbiya toptirish jarayonida ta'limga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktab ta'lim tizimida ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim sifati oshirish uchta eng asosiy tarmoqlarni birdek takomillashuviga bog'liq bo'lib, umumta'lim muassasalarining moddiy texnika bazasini rivojlantirish, o'quv metodik adabiyotlar bilan boyitish, o'quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va multimedia vositalaridan foydalanishdan iborat.[4]

Zamonamizda o'quvchilarni yangiliklar, g'aroyibotlar, ilg'or xalqaro tajribalar qiziqtiradi. Zamon bilan birgalikda o'quvchi yoshlarning ongi, fikrlash tezligi ortib bormoqda. Ayni damda yoshlarni tarqatma materiallar emas kompyuterda bajariladigan, animatsiyalarga boy mashg'ulotlar ko'proq qiziqtiradi. Zamon zayli degandek ayni vaqtda ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Shu sababdan ko'p jihatlarni o'zida ifodalovchi "Multimediali dars" , "Slayd asosida o'tiladigan darslar" va " Seminar dars" lardan foydalanish tavsiya etiladi. Seminar dars o'quvchilarni dars davomida faol qatnashishlariga, o'zlari

ustida ishlashga va dars davomida baxs-munozaralar bilan o'tishini ta'minlaydi.[3]

### **Asosiy qism:**

Endi multimedia atamasiga to'xtaladigan bo'lsak, bu terminning bir qancha ta'riflari mavjud. Ulardan ayrimlarini keltiramiz. jumladan, multimedia-(inglizcha-yunoncha "multimedia" – ko'p vositalar) bu axborot informatsiya uzatishning xilma-xil vositalarni qamrab olgan texnologiya bo'lib, unda muayyan dasturlar va vositalar mavjud. [3]

Multimedia - kompyuter tizimida matn, tovush, videotasvirni va turli animatsiyalarni mujassamlashtirish imkonini beruvchi zamonaviy axborotlar texnologiyasida. Darslarda multimedia vositalaridan foydalanish jarayonida o'qituvchi:

- o'quv materialini ko'rgazmali tarzda taqdim etadi;
- yangi materialni tezlik bilan yetkaza bilish;
- axborotlar tezligi va hajmini animatsiyalar ko'magida boshqara oladi;[3]

Darsda ko'rgazmali vositalardan ko'proq foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki bugungi kunda bolalarni qoyil qoldirish ancha mushkul. Shuning uchun zamonaviy pedagog tinib-tinchimasligi, innovatsion, noan'anaviy, interaktiv dars usullarini muntazam o'qib va o'rganib borishi hamda o'quv-tarbiya jarayoniga tadbiiq eta olishi zarur. O'quvchilar bitta dars davomida ham ko'rsin, ham tinglasin, ham gapirsin, ham mushohada qilsin, ham yozsin. Pedagog-psixologlarimizning o'tkazgan taxlillariga ko'ra, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan axborotlar 2 hafta o'tgach, mustaqil o'qish orqali 10 foizi, tinglash orqali 20 foizi, o'zi namoyish etsa yoki so'zlab bersa, 50 foizi, bahs-munozara, suhbat orqali 80 foizi, o'zi amaliy bajarganda esa 90 foizi eslab qolinar ekan. Shularni hisobga olsak, o'quvchilarga dars berishda ko'proq bahs-munozara, suhbat va amaliy ishlarni dars davomida o'z kuzativumiz va nazoratimiz ostida olib borishimiz kerak ekan. Dars o'tayotgan paytda multimedia vositalaridan deyarli hamma darsda unumli foydalanishimiz mumkin. Masalan, o'qish darslarini oladigan bo'lsak, unda kelgan biron hikoya yoki ertakni turli hayvonlarni jonlantirgan holatda, ularning har biriga ovoz bergan holatda qo'yib bersak o'quvchining diqqatini tezroq darsga jamlab olamiz. Yoki ertak nomi berilib undagi qahramonlar aks ettirilib ular asosida o'zlari ertak yaratishlarini to'shiroq sifatida bersak ham maqsadga muvofiqdir.[4]

*Geografiya darslarida multimedia vositalaridan foydalanish:* Bunda biz o'quvchilarga murakkab mavzularni tushintirishda ayni o'sha damda ular ular bilimni mustahkamlash savol va javob qilib o'z xatolarini bilib olish imkoniyatini yaratishimiz mumkin. Bu o'quvchiga darsga bo'lgan qiziqishni va serharakat bo'lishni o'rgatadi. Shu bilan birgalikda, pedagog doim ham darsga multimedia vositalari orqaligina emas, boshqa tomonlama ham yobdashmog'i lozim. Chunki texnik nosozliklar tufayli, elektr energiyasining mavjud bo'lmay qolishiga natijasida bir butun dars davomida hech bir ma'lumotni yetkaza olmay qolishi mumkin. Yoki o'quvchi doim qiziq, kreativ yondashilgan darslarini tinglab, darslarga quloq solmay qo'yishi ham mumkin. Kreativ pedagoglarning darslarida faol, boshqalarida faollikni yo'qotishi kabi holatlar kuzatiladi. Bundan tashqari pedagog dars o'tish jarayonida ko'plab jihatlariga e'tibor qaratishi lozim:

- o'quvchilarning hammasiga bir xil muomalada bo'lish;
- dars materiallarini tayyorlayotgan vaqtida o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olishi;
- ularning shaxsini hurmat qilishi;

- o'tilayotgan mavzuni tushuntirishda faqat ilmiylikga emas hayotiylikga ham e'tibor qaratishi lozim.

- o'quvchi ham, avvalo. o'ziga o'xshagan inson ekanligini hisobga olishi kerak.[3]

Axborot texnologiyalari hayotning barcha jabhalariga kirib keldi. Dars o'tayotgan o'qituvchi va o'quvchi orasida o'zaro ishonch bo'lishi kerak. Sitxartxa Gautamaning shunday oltinga teng o'zlari mavjud: " Agar sen ustozing sening ustozing bo'lgani uchungina ishonsang, undan ko'ra ishonmaganing maq'ul" . Dars o'tish jarayonida ustoz 90 foiz harakat qilib ishlab, o'quvchi 1foiz o'qisa, yo ustoz 1foiz o'qitib, o'quvchi 99 foiz o'qisa natija a'lo bo'ladi.

Multimedia vositalarining keyingi samarasi o'quvchi tadqiqotlarida aniqlangan vaqtdan ko'pdir. Texnologiya maktabni tavsiya qilingan darajada talabalarning ma'lumot bilan qiziqishini va muloqotning tuzishini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, multimedia vositalari o'z o'quv dasturlariga muvofiq bo'lishiga yordam beradi va talabalarga bir-biridan farqli usullarda o'quvni tashqi mashqlar va kurashishlar orqali tashkillashtirishlariga o'rin yaratadi. Bularning hammasi jihatidan, boshlang'ich sinflarni o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish juda samarali bo'ladi va o'qituvchilarni eng so'nggi texnologiyalar bilan o'quv jarayonlarini moderneleshtirishga rag'batlantiradi. Bunday o'quv uslubini bajarish bilan orzular, mashqlar va mahoratlariga fikir bermish talabalar qo'l olishadi va ularni faqat fanlarida, balki turli yo'nalishda yuqori darajada ish bilan ta'minlaydi. Yosh yili talabalari avvalga kompyuter yoki tizimga tushunmaslar, to'liq o'zlashtirish viloyati bilan emaslar. Ammo ularni boshlang'ich sinflarni o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanishga olib kelish bu yutuqlarda faqat ko'proq yuqori saviyda joylashishiga olib keladi.

Ushbu maqolada o'rta maktab geografiya darsini multimedaning roli va o'rni chuqur tahlil qilinadi, multimedia texnologiyasini boshqa ta'lim texnologiyasi vositalari bilan solishtiradi, geografiya sinfida multimedia ta'lim texnologiyasi vositalari yordamida o'qitishni amalga oshirishning afzalliklari va cheklovlarini tushuntiradi. Shu bilan birga, ushbu maqola tanlangan diqqatning kognitiv muammosini ob'ektiv ravishda mavjud bo'lgan geografiya qismlarining eshitish jozibadorligini o'lchash muammosiga aylantiradi Nihoyat, o'qitish amaliyotining ma'lumotlar tahliliga ko'ra, ushbu o'quv amaliyoti bo'limida "ritm" tushunchasi orqali ijtimoiy va tabiiy hayotda "tartib" va "aylanish"ning o'quv maqsadlari yaxshi amalga oshirilgan.

#### **Xulosa:**

Geografiya fanini o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish juda samarali bo'lib, ma'lumotga qiziqishni oshiradi va talabalarning o'qishini qanday mohiyatli va ko'proq qiziqarli qiladi. Multimedia vositalari o'qituvchilarning o'quv uslubini zamonaviylashtirishda multimedia vositalaridan foydalanish mashg'ulot sifatini ortishiga yordam beradi. Bu vositalar talabalarga qo'shimcha mashg'ulotlarni, ko'rsatkichlarini va o'zlashtirishdan tashqari, turli yo'nalishlarda ish bilan ta'minlab beradi. Yosh talabalar uchun multimedia vositalaridan foydalanish talabalarning elektron ma'lumotlar va media mavzulariga mutanosib bo'lishi zarur,shu bilan birga, o'qituvchilar talabalarni zamonaviy va samarali usulda o'qitish bo'yicha samarali natijalar beradi. Bunday uslub barcha o'qituvchilar uchun o'ziga xos imkoniyatni yaratiladi.Shuningdek, multimedia vositalari yuqori sinflarni yetakchi turdagi konsepsiyalar va tushunchalar bilan tushuntirish mumkin, bu esa o'quvchilarning ishonchini orttiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Azizxodjayeva N.N Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.:Fan,2006.

2. M.Aripov, M.Fayzieva, S.Dottoev. Web-texnologiyalar. T.: "Fayla- suflar jamiyati", 2013 y.
3. [https://www.researchgate.net/publication/364187570\\_Strategies\\_of\\_Using\\_Multimedia\\_Technology\\_to\\_Optimize\\_Music\\_Classroom\\_Teaching\\_in\\_Primary\\_and\\_Secondary\\_Schools](https://www.researchgate.net/publication/364187570_Strategies_of_Using_Multimedia_Technology_to_Optimize_Music_Classroom_Teaching_in_Primary_and_Secondary_Schools) 1330
4. "How to Use Multimedia Effectively in Your Classroom?" <https://learnlaughspeak.com/how-to-use-multimedia-effectively-in-your-classroom/>
5. M.Aripov, M.Muhammadiev. Informatika, informatsion texnologiyalar. T.: TDYuI, 2005 y.
6. Joel Kilty. Mathematical Modeling and Applied Calculus. Oxford University Press (November 20, 2018) 816 pages.
7. Nurmatov, Z. O., Tursunpulatova, K. A., & Nasriddinova, Z. N. (2023, May). THE ROLE OF MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES. In International Conference on Science, Engineering & Technology (Vol. 1, No. 1, pp. 99-103).
8. R.Hamdamiyov, N.Taylaqov, U.Begimqulov, J.Sayfiyev. Elektron universitet, elektron vazirlik, masofaviy ta'lim texnologiyalari Toshkent, 2011.
9. Shamsiddinovich, M. R., & Obidjonovich, Z. N. (2021). Advantages and Improvements of E-Textbook Teaching of Computer Science in General Secondary Education. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES, 2(12), 71-74.
10. Nurmatov Z. O., Chorshamiyeva O. N., Pirmova F. A. TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING IJOBIY VA SALBIY TOMONLARI //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 12-18.
11. M.Mamarajabov, S.Tursunov. Kompyuter grafikasi va Web dizayn T.: Chulpon" 2013 y. 254 b.
12. Islomovich, S. E. (2023, March). MAVZU: ELEKTRON RAQAMLI IMZO VA BULUT TEXNOLOGIYALARI: FOYDALANISH MASALALARI TAHLILI. In Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies (Vol. 2, No. 3, pp. 31-34).
13. Nurmatov, Z., To'rayev, D., & Pirmova, F. (2023). TIXONOV BO 'YICHA KORREKTLIK VA KORREKTLIK TO 'PLAMI. NORMAL YECHIMNI TOPISHNING REGULYARLASHTIRISH USULI. Евразийский журнал академических исследований, 3(5 Part 3), 28-37.
14. Якубов, С. Х., Хамраев, А. А., Хушбоков, И. У., & Нурматов, З. О. (2022). АЛГОРИТМИЗАЦИЯ САПР ОПТИМИЗАЦИИ ТОНКОСТЕННЫХ ЭЛЕМЕНТОВ ИНЖЕНЕРНЫХ КОНСТРУКЦИЙ. Universum: технические науки, (11-1 (104)), 53-59.
15. Islomovich, SE (2023, May). THE ROLE OF QUANTUM COMPUTERS IN THE DEVELOPMENT OF QUANTUM ALGORITHMS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (Vol. 1, No. 05.05, pp. 557-563).
16. Saidahmedov, E. (2023). KVANT ALGORITMLARNI ISHLAB CHIQUISHDA KVANT KOMPYUTERLARINING O'RNI. Science and Innovation , 1 (1), 58-64